



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

DRAMALARDA AYOL VA ERKAKLARGA XOS MUROJAAT SHAKLLARI

Masharibova Roxatoy Ozadovna,
*Xorazm Ma'mun Akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi,
Xiva shahar.*
masharibovarohatoy@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183534>

Annotatsiya: Maqolada ayol va erkaklarga xos murojaat ifodalovchi shakllarning dramatik asarlarda qo'llanishiga doir fikr-mulohazalar bayon qilingan, unda mustaqillik davrida yaratilgan dramalarda ayol va erkaklarning murojaat shakllari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sotsial rol, muloqot madaniyati, muloqot shakllari, gender xususiyatlar, shaxs, nutq, ayollar nutqi, erkaklar nutqi.

Kirish. Muayyan mavzudagi suhbat davomida ayollarga xos, to'satdan paydo bo'lgan shunday matn qurilmalari mavjudki, ularda asosiy muloqot mavzusiga daxldor bo'lmagan, lekin muloqot vaziyatini tug'diradigan bu holat ayollarning tipik sotsial rollariga muvofiq ravishda yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, ayollarning xoh lisoniy ifoda, xoh boshqa sohada bo'lsin, "chetlashishi", asosiy masaladan chalg'ishi tabiiydir. Belgilangan rolning doimiy bajarilishi ayollarning tipik xulqida o'z izlarini qoldiradi, barqaror mohiyat kasb etadi, nutqiy xulq strategiyasi va taktikasi o'ziga xos ta'sir qilib, tipiklashuvni vujudga keltiradi. Shu jihatdan ayollar va erkaklar nutqining farqli holatlari namoyon bo'ladi. Keyingi yillarda tilshunoslikda aynan nutqning gender xususiyatlari borasida muayyan fikrlar ilgari surilmoqda. Umumtilshunoslikda bu masalaga oid qator tadqiqotlar maydonga kelgan.

Asosiy qism. Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida nutqning gender xususiyatlarini tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligi uchun dolzarb masalalardan biriga aylanganligi qayd qilinadi. Xususan, Sh.Iskandarova, S.Mo'minov, M.Qurbonova, L.Raupova, M.Isayeva kabi tilshunoslarning ishlarida o'zbek tilining gender xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligida nutqning gender xususiyatlari alohida tadqiqot sifatida o'rganilgan bo'lmasa ham, keyingi tadqiqotlarda bu borada fikrlar bildirilmoqda. Jumladan, Sh.Iskandarova nomzodlik ishida o'zbek muloqot odatining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida ayollar nutqiga xos xususiyatlarni ham tahlil qilib, ularning nutqiga xos iboralar, murojaat shakllari va noverbal vositalar xususida to'xtalib o'tadi. S.Mo'minov tadqiqotida ham o'zbek muloqot xulqi misolida nutqning gender xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotning bir bo'limi aynan o'zbek muloqot



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

xulqining jins jihatidan xoslanishiga bag'ishlangan bo'lib, o'zbek erkaklari va ayollari muloqot xulqiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar – salomlashish va ko'rishishda, murojaat shakllarida, nutqning muhim bosqichida so'z va iboralarni, shuningdek, noverbal vositalarni qo'llashdagi xoslanishlar tahlili keltirilgan. L.Raupova tadqiqot ishida dialogik diskursda ayollar va erkaklar nutqining ahamiyatli xususiyatlari borasida to'xtalgan^[1]. Aynan mustaqillik davrida yaratilgan dramalardagi nutqning jins jihatdan xoslanishini tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Har bir rivojlangan til har xil sotsial rolga xizmat qiluvchi o'ziga xos vositalarga ega. Bunga kasbiy rolni bajarish chog'ida umumiste'mol nutqiy vositaning chegaralangan vositaga almashtirilishi misol bo'la oladi. "Professiya" omilining kuchi ayol nutqiga nisbatan erkak nutqida ko'proq kuzatiladi. Bu, ayniqsa, professional leksikaning qo'llanishida ko'zga tashlanadi. Bunda to'liq bo'lmasa ham, ma'lum darajada nutqiy vositalar almashinuvini kuzatish mumkin.

Ayollarda atrof-muhitga va nutq mavzusiga munosabat butunlay boshqacha. Hatto oliy ma'lumotli, ilmiy darajali ayollar ham o'zlarini hech qachon oilaviy, maishiy masalalardan uzilgan deb hisoblamaydi va ularga ikkinchi darajali munosabatda bo'lmaydi. Erkaklar esa bola tarbiyasi, oila yumushlari bilan shug'ullanayotib ham bu ishlarning unga xos emasligini chuqur his etib, eng og'ir, asosiy ishiga xalal beradigan "dahmaza" ekanligini ta'kidlab turadilar. Ana shu hayotiy tutum ularning jiddiy suhbatlarini bo'luvchi yordamchi yoki ikkilamchi mavzuga salbiy munosabatining mohiyatini belgilaydi^[2]. Shuningdek, ayollar va erkaklar nutqi o'ziga xos bo'lib, til birliklarini qo'llashda ham yaqqol seziladi. Ayrim til birliklari ayollar nutqida qo'llansa, ayrimlari erkaklar nutqiga xoslanganligi bilan diqqatga sazovor.

Erkak va ayollar bajaradigan vazifalari, jamiyatda tutgan o'rinlari jihatidan bir-birlaridan farqlanar ekan, tabiiyki, ularning muloqot madaniyatida ham farqli holatlar mavjud bo'ladi. Erkak va ayollar o'rtasidagi muloqot haqida turlicha fikrlar mavjud, masalan, ayrim manbalarda ayol va erkaklarga bir xil tipdagi insonlar deb qaralgan, vaholanki bular eng avval har xil imkoniyat, burch va erklarga ega bo'lgan shaxslardir. Bunday farqlanish muhim ahamiyat kasb etib, muloqot madaniyatida alohida o'rin tutadi^[3]. Yuqoridagilarga tayangan holda Erkin A'zamnining "Jannat o'zi qaydadir" dramasiidagi parchaga murojaat qilamiz:

D o m l a: (sho'xchanlik bilan) *Xo'p bo'ladi, xonim! Xo'p bo'ladi, Roza Hasanovna! Hozir-da.* (Domla yog'och zinapoyadan tushib keladi va shiyponning orqasida — bizga ko'rinmay turgan moshinaning eshigini ochgani eshitiladi. Ul-bul



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

murvatini tekshirib chiqqan bo'lsa kerak, eshik yana qarsillab yopiladi. Bu vaqt boyagi qo'shiq ham tingan).

D o m l a: (shiypon tagidagi chorqirra ustunga suyanib turgan xotining oldiga qaytib) *E, ko'cha-ko'ydan kelyapti, shekilli... (O'choqboshi tarafga qarab) Amma! Biror narsangiz bormi? Qorin piyozning po'stlog'i bo'pketdi-ku!*

A s a l x o l a: *Birpasginada bo'ladi, aylanay, sabr qilasiz.*

X o n i m: (ensasi qotib). *Aylanay, o'rgilay... Bu kishi – domla!*

Ushbu mustaqillik davri dramasida erkak va ayollarga xos murojaat shakllari quyidagicha farqlanadi:

“Xonim” – hurmat ifodalovchi so‘z. Masalan, “*Xonim! Hech gapdan xabaringiz yo‘qmi, domla?*” Bu so‘z, ayniqsa, oilaviy muhitda yoki rasmiy munosabatlarda qo‘llaniladi.

“Ayollarga xos latif murojaat shakllari”: “*Aylanay*”, “*O'rgilay*”, “*Hoy, aylanay*” – bu so‘zlar ayollarga yoki bolalarga nisbatan ishlatilib, iliqlik va yaqinlik ifodalaydi. Masalan, Asal xola xonimga “*Aylanay, o'rgilay*” deya murojaat qiladi.

“Dramatik asarlarda murojaat shakllari boshqa janrdagi asarlardan farq qiladi:

– ayollarga murojaat shakllari ko‘proq iliq, samimiy yoki ba‘zan kinoya aralash bo‘lishi mumkin;

– erkaklarga murojaat shakllari esa ko‘pincha hurmat, taajjub yoki ba‘zan buyruq ohangida bo‘ladi;

– oilaviy va ijtimoiy maqomga qarab murojaat shakllari turlicha bo‘lishi – “*domla*” so‘zi ilmiy daraja ifodalasa, “*Amma*”, “*Asal xola*” kabi so‘zlar keksa ayollar uchun ishlatiladi;

– emotsional holatlarga bog‘liq holda turlicha foydalaniladi – Masalan, “*Mustaqillik ketganmish-ku!*” degan gap qahramonlarning hayratlanishiga sabab bo‘lsa, javob sifatida “*Nega?!*” kabi ajablanish bilan ifodalangan murojaatlar keladi;

– dramatik asarlarda murojaatlar qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada aniq va jonli ifodalash uchun ishlatiladi^[4].

Dramalarda ayol va erkaklarga xos murojaat shakllari, ya‘ni personajlarning bir-biriga murojaat qilish usullari, ularning ijtimoiy mavqeyi, yoshi, jinsi va o‘zaro munosabatlariga qarab farqlanadi. Bu murojaatlar dramadagi xarakterlar orasidagi munosabatlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Murojaat shakllarining shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillar orasida yosh, jins, egallagan mavqe-lavozim, oilaviy-qarindoshlik aloqalari va kishilarning munosabatidagi emotsional yaqinlik darajasi muhim rol o‘ynaydi. Bu omillar murojaat shakllarining tanlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, erkak va ayol nutqida murojaat so‘zlarining



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

semantikasi ham farqlanadi. Ayollar va erkaklar muloqot madaniyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning nutqidagi murojaat so'zlari turlicha bo'lishi mumkin.

Mustaqillik davri dramalarida erkak va ayollarga murojaat qilishda qo'llaniladigan so'zlar va shakllar turlicha bo'lib, ular murojaat qilinayotgan shaxsning jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqeyi va yaqinlik darajasiga qarab farqlanadi.

Murojaat shakllarini tanlashda shaxslar o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy mavqe va muloqot konteksti inobatga olinadi. Masalan, rasmiy muhitda "janob" yoki "xonim" kabi murojaatlar qo'llanilsa, norasmiy muhitda "aka", "opa" kabi murojaatlar ishlatiladi^[5]

Dramada erkak va ayol qahramonlarga xos xususiyatlar adabiy ijodning muhim jihatlaridan biri bo'lib, ular jamiyatdagi rollar, madaniy me'yorlar va shaxsiy individualliklar asosida shakllanadi.

Dramada ayol va erkak qahramonlar jamiyatdagi roli va madaniy xususiyatlardan kelib chiqib, turli xil xususiyatlar bilan tasvirlanadi. Bunda har ikkisi ham insonning chuqur psixologiyasini va insoniy tuyg'ularni ochib berish vositasi sifatida o'ziga xos ahamiyatga ega. Ular o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar drama syujetining rivojiga xizmat qiladi.

Murojaat shakllarini jins jihatidan tahlil qilganda, erkak va ayol so'zlovchilarning nutqida qo'llaniladigan murojaat shakllari hamda ularga nisbatan qo'llaniladigan murojaat shakllari tarzida tahlil qilish lozim. Ayollar va erkaklar nutqi so'z va iboralarni qo'llanishi bilan ham bir-biridan farq qiladi. Nutqda uchraydigan shunday ibora va so'zlar borki, ular faqat ayollar nutqiga xos, yoki aksincha, ayrim birliklar erkaklar nutqigagina xoslangan. Mustaqillik davri dramalarida erkak va ayollar nutqining o'ziga xos ana shunday holatlarini ko'rish mumkin. Bu farqli holatlar, ayniqsa, murojaat shakllarida o'z ifodasini topgan. Chunki murojaat shakllarida so'zlovchi va tinglovchining jinsi yaqqol namoyon bo'ladi. Buni oddiy muloqot madaniyatimizda ham uchratish mumkin. Ayollar nutqida "Aylanay", "O'rgilay", "Hoy, aylanay", "Ovsin", "Dugonajon", "Egachi", shuningdek, turmush o'rtoqlariga qarata "dadas" murojaat shakllari mavjud^[6].

Xulosa. Ma'lumki, nutqning gender xoslanishi masalasi sotsiolingvistik tadqiqotlarning asosiy muammolaridan biridir. Nutqiy xulq sotsial rollar bilan bog'liq. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, erkaklar aql-u idrok, iroda va jismoniy qudratni, ayollar esa nazokatni talab qiluvchi rollarga xoslangan. Ayol va erkak sotsial rollarini bajarish o'ziga xos xususiyatga ega. Tilning sotsial funkcionallashuvida buning yorqin ifodasini ko'rish mumkin. Muayyan mavzudagi



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

suhbat davomida ayollarga xos, to'satdan paydo bo'lgan shunday matn qurilishlari mavjudki, ularda asosiy muloqot mavzusiga daxldor bo'lmagan, lekin muloqot vaziyatini tug'diradigan bu holat ayollarning tipik sosial rollariga muvofiq ravishda yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, ayollarning xoh lisoniy ifoda, xoh boshqa sohada bo'lsin, "chetlashishi", asosiy masaladan chalg'ishi tabiiydir. Belgilangan rollarning doimiy bajarilishi ayollarning tipik xulqida o'z izlarini qoldiradi, barqaror mohiyat kasb etadi, nutqiy xulq strategiyasi va taktikasi o'ziga xos ta'sir qilib, tipiklashuvni vujudga keltiradi. Shu jihatdan ayollar va erkaklar nutqining farqli holatlari namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. *L.Raupova*. Dialogik diskursdagi nopredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri...diss. – Toshkent, 202. – 220 b.
2. Кирилина А.В. Гендер: Лингвистические аспекты. – Москва, 1999.;
3. Беляева А.Ю. Особенности речевого поведения мужчин и женщин (на материале русской разговорной речи): Дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2002.;
4. Барышникова Г.В. Гендерные различия эмоциональной компоненты во французской художественной коммуникации (на материале литературы XVII-XX веков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2004.;
5. Назарова Е.Д. Гендер адресата как прагматический фактор комуникации: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2009.;
6. Гаранович М.В. Вариативность гендерных стереотипов в зависимости от социальных параметров говорящих: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Пермь, 2011.